

XORAZM TILSHUNOSLIK ILMIY MAKTABI XUSUSIDA

*Razzakova Navbahor**UrDU magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy maktab tushunchasi, ilmiy maktablarning shakllanish mezonlari, mamlakatimizda ilmiy maktablar faoliyatiga va ularni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, xususan Xorazm tilshunoslik maktabi shakllanishi va faoliyati haqida so'z brogan

Kalit so'zlar: ilmiy maktab, ilmiy jamoa, ilmiy yo'nalish, akademik harakatchanlik, ilmiy maktab asoschisi, Xorazm tilshunoslik ilmiy maktabi, tadqiqotchi.

Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi, shu ma'noda dunyoning barcha mamlakatlarida bu sohaga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Ilm-fan shaxsiy tashabbus yoki davlat tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilishidan qat'i nazar, davlat ahamiyatiga ega bo'ladi. Ilmiy taraqqiyot jarayonida alohida olimlar rahbarligida shakllanadigan ilmiy maktablar muhim o'rin tutadi. Bunday maktablar ilmiy merosning davomiyligi, metodologik yondashuvlarning rivojlanishi va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining barqarorligida asosiy omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasi ilm-fan siyosatida ham ilmiy maktablar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 6097-son Farmonida Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab "Akademik harakatchanlik" dasturi joriy qilinsin¹ deb belgilab qo'yilgani ilmiy maktablarga faoliyatini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Prezident Farmonida ilmiy maktablarni shakllantirish va yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni ijrosini ta'minlash, hududlarda ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish hamda ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 222-son Qarori qabul qilindi.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 6097-son Farmoni. 29.10.2020. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222-son Qarori. 19.04.2021. <https://lex.uz/uz/docs/-5377538?ONDATE2=20.04.2021&action=compare>

Ilmiy maktablar tavsifi va ularni taraqqiy ettirish masalalari ko'plab xorijiy olimlar, jumladan, M.Yaroshevskiy, O.Grezneva, N.Loginova, D.Aronov, D.Guzevich, D.Zerbino, S.Polyakov, T.Amabile, R.Cattell, F.Galton, N.Hanson, Ph.Kitcher, L.Laudan, J.Long va boshqalar tomonidan o'rganilgan, mamlakatimizda esa bu masalaga keyingi davrlarda alohida e'tibor qaratila boshladi.³

Ilmiy maktab – ma'lum bir ilmiy yo'nalishda faoliyat olib boruvchi, barqaror tadqiqotlarga ega, yetakchi olim atrofida shakllangan, o'zining ilmiy yondashuvi, shogirdlar tizimiga ega bo'lgan ilmiy jamoa. O'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy maktabda katta avlod tomonidan o'z izdoshlariga ilm bilan birga, madaniy-axloqiy qadriyatlar ham samarali uzatib turiladi va ilm-fan, ta'lim, ustoz-shogirdlik an'anasining o'zaro uzviyligini ifodalovchi modelini namoyon etadi.⁴

Ilmiy maktab olimlarning o'zaro ijodiy, doimiy, norasmiy muloqoti, g'oyalar bilan o'rtoqlashishi va natijalar muhokamasining tashkiliy shaklidir va u fan sohasida yangicha yondashuvlarni yuzaga keltirishga intiladi. Ularga tashabbuskorlik, mustaqillik, rivojlanish uchun ichki rag'batning mavjudligi, maqsadga intiluvchanlik, barqaror g'oyaviy qarashlar, erishgan natijalardan qanoatlanmaslik kabi sifatlar xosdir. Yirik ilmiy maktablarning shakllanishi uzoq kechadigan mashaqqatli jarayondir. Oliy ta'lim muassasasi sharoitida bu masalaning yechimi jamoaning ham ta'limiy, ham ilmiy vazifalarni o'zaro mujassam holatda bajarishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Ijodiy muhitning yaratilishi, talaba va ilmiy izlanuvchilar orasidan tanlanadigan iqtidorli shogirdlar bilan ishlash, o'quv-yordamchi va ilmiy bazaning mavjudligi yetakchi olimlarga universitet muhitida yuqori ahamiyatga ega natijalarga erishish uchun zarur asoslarni beradi. Shu ma'noda, ilmiy maktabni yetakchi olim rahbarligida belgilangan dasturni amalga oshiruvchi turli toifadagi olimlarning intellektual, ma'lum qadriyatga ega, norasmiy, ochiq jamoasi deyish mumkin. Bu kabi maktablarning eng ahamiyatli jihatlari: ilmiy g'oyalarni yaratish va himoya qilish, yoqlash; alohida olimlar tomonidan hal etilishi murakkab bo'lgan yirik ilmiy masalalar kompleks yechimining jamoaviy ishlab chiqilishiga erishish; yosh olimlarni tayyorlash.

Ilmiy maktablar tan olinishi nuqtayi nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:⁵

1. Jahon sivilizatsiyasida tan olingan ilmiy maktablar. Bunga Markaziy Osiyo misolida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar asos solgan maktablar taalluqlidir.

³ Sharipov Sh. Ilmiy maktablar — qadriyatlar uzviyligini ifodalovchi model sifatida. // O'zbekistonda oliy ta'lim jurnali. 2023-yil 29-dekabr. <https://edujournal.uz/1068/>

⁴ Marselova X. Ilmiy maktab mezonlari. Maqola.

⁵ Sharipov Sh. Ilmiy maktablar — qadriyatlar uzviyligini ifodalovchi model sifatida. // O'zbekistonda oliy ta'lim jurnali. 2023-yil 29-dekabr. <https://edujournal.uz/1068/>

2. Ma'lum bir mamlakatning tan olingan yetakchi ilmiy maktablari. Bunga respublikamizda T.N.Qori-Niyoziy, Ibrohim Mo'minov, Yahyo G'ulomov, Po'lat Habibullayev, Siddiq Rajabov, Shavkat Olimov, Natan Mallayev, Yunus Rajabiy kabi olimlar maktablarini kiritish mumkin.

3. Muayyan tarmoq va muassasalar miqyosida e'tirof etiladigan ilmiy maktablar.

Bunday maktablarni yana "Tan olingan ilmiy maktablar", "Taniqli ilmiy maktablar", "Rivojlanib kelayotgan ilmiy maktablar", "Shakllanayotgan ilmiy maktablar" kabi darajalarga ajratish mumkin.

Rivojlanib, kundan kunga yanada taraqqiy etib kelayotgan ilmiy maktablardan yana biri Xorazm tilshunoslik ilmiy maktabi hisoblanadi. Ushbu maktab jamoa a'zolari bevosita Urganch davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbek tilshunosligi kafedrasini tarixini o'rganib chiqamiz.

O'zbek tilshunosligi kafedrasining shakllanish davrini

1935–1944-yillar deyish mumkin. Dastlab kafedrani Lochin Xonnazarov boshqargan. 1944-yilda Xorazm pedagogika instituti tashkil etilganida o'zbek tili va adabiyoti bo'limi sifatida faoliyat yuritgan. Kafedra tarkibini O'zbekiston davlat universitetini bitkazib qaytgan yosh mutaxassislar – Erka O'rozov, Matyoqub Qurbonniyozov, Toshkentdan kelgan To'qa Sharipov, shu ilm dargohini tamomlagan Hojar Rahimboyeva kabi o'qituvchilar tashkil qilar edi.

1946–1949-yillarda o'zbek tilining yetuk mutaxassisi To'qa Sharipov mudir lavozimida ishlaydi. 1949-yil kafedra tarkibidan O'zbek adabiyoti mustaqil kafedra sifatida ajralib chiqadi. 1950-1951 o'quv yilidan O'zbek tilshunosligi kafedrasiga f.f.n, dotsent Fattoh Abdullayevich Abdullayev mudir qilib tayinlanadi. Ustoz kafedrani 1956-yilgacha boshqardi. Kafedraga rahbarlik qilgan yillarda fan asoslarini o'rgatish, ilmiy izlanishlar sirlarini singdirish borasidagi va undan keyingi davrlarda olimning o'lkamiz yoshlarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish sohasidagi, shuningdek, madaniyatimiz ravnaqiga beqiyos hissasini alohida ta'kidlash lozim.

1957-1962-yillarda kafedraga yosh olim Otanazar Madrahimov mudirlik qilganlar. Ustoz o'zbek tili va adabiyoti fani rivojiga munosib hissa qo'shgan tilshunos olim Fattoh Abdullayev o'gitlariga sodiq qolgan holda kafedra tarkibini ilmiy darajali xodimlar bilan to'ldirishga katta e'tibor qaratdi.

1962-1966-yillarda kafedraga nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib kelgan Yusuf Jumanazarov rahbarlik qilganlar. O'sha davrda kafedrada faqat ikki nafar fan nomzodi faoliyat ko'rsatgan. 1966-yilda Erka Yusupovich O'rozov nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib qaytgach, kafedraga mudir qilib tayinlandi. Bu davrda kafedraga fan nomzodlari To'liqin (To'liboy) Yo'ldoshev, Karimboy Hayitmatov, Zaribboy Do'simovlar jalb qilindi. 1970-yillar kafedra ilmiy salohiyati fan nomzodlari Fazilat Ibrohimova, Gavharjon Matjonova va Ozod Botirovlar hisobiga yuksaldi. Mazkur yillarda kafedra tarkibi 7 nafar fan nomzodi, dots.ntlari, 4 nafar katta

o'qituvchidan iborat bo'lgan. 1950-1980 yillar kafedra uchun ilmiy salohiyat borasida yuksalish va samarali pedagogik faoliyatga erishish yillari bo'lgan. 1981-1990-yillar ham kafedra hayotida ilmiy yuksalish, sermahsul ijod yillari bo'ldi, filologiya fanlari doktori, professor O.Madrahimov rahbarligida kafedra fan doktorlari, professor va dotsentlar hisobiga yana ham yuksaldi. Kafedra a'zolari 1991-yildan "O'zbek tilini o'rganish va qayta qurish hamda takomillashtirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy Respublika anjumanining muntazam qatnashchilari va targ'ibotchilariga aylandilar. Professorlar Zarifboy Do'simov, To'lqin (To'liboy) Yo'ldoshevlar ilmiy tadqiqotlarida va filolog ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashda Qoraqalpog'iston davlat universiteti va Fanlar akademiyasi olimlari bilan hamkorlikda yaqindan ish olib bordilar va professor Zarifboy Do'simov "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi", To'lqin (To'liboy) Yo'ldoshev "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvonlariga musharraf bo'ldilar. Yillar davomida kafedrada ilmiy-amaliy an'analar shakllandi va ta'limiy-pedagogik faoliyat yuksaldi. Ilmiy nufuzi yuksak, salohiyatli kafedra qoshida "Tilshunoslik" ixtisosligi bo'yicha aspirantura faoliyat yurita boshladi va unga 1995-yildan iqtidorli yoshlar tanlov asosida qabul qilindi. Kafedraga 1996-yildan dotsent Ozod Botirov rahbarlik qila boshladi. Katta o'qituvchi Ro'zimboy Yo'ldoshev 1996-yildan viloyat radio va televideniyesi orqali "Lotin alifbosi saboqlari" ruknida turkum eshittirish va ko'rsatuvlar olib bordi.

2001-yildan O'zbek tilshunosligi kafedrasini f.f.d., professor Zarifboy Do'simov boshqargan. 2001-yilgacha tilshunoslik kafedrasini umumiy tilshunoslik va hozirgi o'zbek adabiy tilshunosligi yo'nalishlarida faoliyat yuritgan. 2001-yilda ikkala kafedra birlashtirilib, "O'zbek tilshunosligi" nomi ostida faoliyat boshladi. Kafedraga 2001–2009 yillar f.f.d., professor Zarifboy Do'simov, 2009–2013 yillar f.f.n., dotsent Primov Azamat Iskandarovich, 2013–2014 yillar f.f.n. Rajabov O'tkir Xudayarovich, 2014–2016 yillar f.f.n., dotsent O'razboyev Abdulla Durdiboyevich, 2016–2019 yillar f.f.n., dotsent Ro'zimboyev Sarvar Saparbayevich, 2019-yil avgust oyidan f.f.n., dotsent Primov Azamat Iskandarovich mudirlik qilmoqda.

Hozirda Xorazm ilmiy maktabida bo'lajak tadqiqotchilarni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-ta'limiy maktab, ilmiy maktab yetakchisi rahbarligida tanlangan yoki yaratilgan tadqiqotchilik dasturini birgalikda amalga oshiruvchi olimlar guruhi - tadqiqotchilar jamoasi, olimlar guruhi va tadqiqotchilar jamoasi tomonidan asos solingan muayyan qarashlarning tarkib topishi bilan bog'liq fandagi yangi yo'nalishlar, taniqli olim rahbarligida dissertatsiya himoya qilib, fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan tadqiqotchilar faoliyat olib kelmoqda.

Kafedra ilmiy maktabi professor-o'qituvchilari tomonidan shu paytgacha 20dan ortiq monografiya, 100 dan ortiq o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma, uslubiy

ko'rsatma, risola kabi o'quv adabiyotlari, 1000dan ziyod ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ilmiy maktablar fandagi umumiy bir evolyutsion taraqqiyotning uzviy bo'g'inlari sifatida jamoatchilik uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi faoliyatining avvalida shunday maktabga birlashishi, tadqiq qiladigan mavzusini aniqlashi va tasdiqlatishi, izlanishini maktab olimlari bilan o'zaro hamohanglikda olib borishga intilishi kerak. Shunda ham o'zining faoliyati samarali bo'ladi, ham o'zi mansub ilmiy maktabning rivojiga hissa qo'shgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 6097-son Farmoni. 29.10.2020. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222-son Qarori. 19.04.2021. <https://lex.uz/uz/docs/-5377538?ONDATE2=20.04.2021&action=compare>
3. Sharipov Sh. Ilmiy maktablar — qadriyatlar uzviyligini ifodalovchi model sifatida. // O'zbekistonda oliy ta'lim jurnali. 2023-yil 29-dekabr. <https://edujournal.uz/1068/>
4. Marselova X. Ilmiy maktab mezonlari. Maqola.